

**INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI HUQUQNI QO'LLASH  
AMALIYOTIDAGI MUAMMOLAR, INTELLEKTUAL MULK  
SOHASIDAGI NIZOLARNING SUDLOVGA TAALLUQLIGI MASALASI**

Maxmudov Faxriddin Foziljon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti

E-mail: [yuristmff@gmail.com](mailto:yuristmff@gmail.com)

**Annotatsiya:**

Ushbu tezisdagi intellektual mulk sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolar, nizolar tabiati hamda normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanishi masalasiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, tezisdagi intellektual mulk bilan bog'liq nizolarning sudga taalluqligi, intellektual mulk nizosini ko'ruvchi sudlar faoliyatida uchraydigan muammolar asosiy jihat sifatida o'rganilgan va tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** intellektual mulk, davlat boshqaruvi, xalqaro shartnoma, bitim, moddiy aktivlar, nomoddiy aktivlar, shaxsiy nomulkiy huquqlar, strategiya, mualliflik huquqi, bojxona reestri.

**Annotation:**

In this thesis, attention is focused on the problems in the practice of law enforcement in the field of intellectual property, the nature of disputes and the application of regulatory legal documents. Also, the main aspects of the thesis are the legality of disputes related to intellectual property, the problems encountered in the activity of courts dealing with intellectual property disputes.

**Keywords:** intellectual property, public administration, international agreement, deal, tangible assets, intangible assets, personal impropriety rights, strategy, copyright, customs register.

FKning 1031-moddasiga muvofiq intellektual mulk obyektlari jumlasiga intellektual faoliyat natijalari, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar, qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar kiradi.



Intellectual mulkka oid nizolar turli huquqiy tabiatga ega bo'lib, ushbu huquqiy tabiat nizolarning sudlarga taalluqlilik masalasini hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Masalan, tovar belgisiga berilgan guvohnomani haqiqiy emas deb topishga oid nizolar ma'muriy sudlarga, tovar belgisiga doir huquqlarni buzilishi to'g'risidagi nizolar iqtisodiy yoki fuqarolik ishlari bo'yicha sudlariga taalluqli hisoblanadi.

Shuningdek, "Firma nomlari to'g'risida"gi Qonunning 121-moddasiga asosan firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish yuridik shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Jarimalar miqdorlari huquqbuzarliklarning har bir turi bo'yicha alohida belgilanadi.

Jarimalar firma nomidan foydalanish huquqiga rioya etilishini tekshirish asosida Adliya vazirligi tomonidan solinadi. Bunda tekshiruv davomida aniqlangan huquqbuzarlik to'g'risida dalolatnoma tuzilib, u tegishincha Vazirlikning va huquqbuzar yuridik shaxsning mansabdor shaxslari tomonidan imzolanadi.

Jarima solish uchun asos bo'lgan huquqbuzarlik aniqlanganligi haqida dalolatnoma rasmiylashtirilgan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida Vazirlik huquqbuzarga nisbatan ushbu moddada nazarda tutilgan miqdorlarda jarima solish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Huquqbuzar tomonidan jarima summasi ixtiyoriy ravishda to'lanmagan taqdirda, Vazirlik jarimani undirish to'g'risidagi da'vo arizasini iqtisodiy sudga belgilangan tartibda besh ish kuni ichida beradi.

Shuni inobatga olish kerakki, Vazirlikning qarori "Firma nomlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq qabul qilinishi bois, uni ustidan keltiriladigan shikoyatlar ma'muriy sudning sudloviga taalluqli hisoblanadi.

Vazirlikning qarori ma'muriy sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi uning asosida iqtisodiy sud tomonidan jarimani undirish haqida qabul qilingan qarorini yangi ochilgan holat bo'yicha qayta ko'rishga asos hisoblanadi.

Intellectual mulk huquqlarining muhofazasi masalasiga to'xtalsak, FKning 1032-moddasiga asosan intellectual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilganligi tufayli yoxud vakolat berilgan davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza berilishi natijasida yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 17 martdagi "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-89-sonli Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Adliya



vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni muhofaza va himoya qilish sohalarida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Shu bilan birga, Vazirlik Intellektual mulk agentligining barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Binobarin, intellektual mulk sohasiga oid qonunchilikda Intellektual mulk agentligiga oid normalar tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilmagunga qadar Vazirlikka nisbatan tadbiiq etiladi (masalan, "Firma nomlari to'g'risida"gi Qonunning 121-moddasida jarimalar Intellektual mulk agentligi tomonidan solinadi deb ko'rsatilgan bo'lsa-da, ushbu moddani qo'llashda agentlik emas, balki Vazirlikni ma'noda tutish lozim).

FKning 1032-moddasiga asosan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilganligi tufayli yoxud vakolat berilgan davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza berilishi natijasida yuzaga keladi.

FKning 1033-moddasiga ko'ra, intellektual mulk obyektlariga va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalarga mulkiy huquqlarni qo'lga kiritgan shaxs ushbu intellektual mulk obyekti va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositadan o'z xohishiga ko'ra har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqqa ega.

Mutlaq huquqlar mavjud bo'lgan intellektual mulk obyektlaridan boshqa shaxslar huquq egasining roziligi bilan foydalanishi mumkin.

Fkning 1031-moddasida intellektual mulk obyekti va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalar ro'yxati keltirilgan bo'lib, ushbu obyektlarni huquqiy muhofaza qilish FKning 59-bo'limiga asosan amalga oshiriladi.

Huquqiy muhofazaga olinadigan intellektual mulk obyektlari va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalarga domen nomlari kirmaydi va ularga nisbatan bo'lgan huquqlar qonunchilikka muvofiq himoya qilinadi.

Biroq, shunga qaratish lozimki, "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga muvofiq tovar belgisi domen nomida ishlatilishi mumkin.

Ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga o'xshashligi sababli domen nomini bekor qilishga doir nizolarni ko'rib chiqishda tovar belgisi va domen nomining ro'yxatdan o'tkazilgan vaqti inobatga olinishi lozim.

"Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasiga ko'ra, tovar belgisiga doir mutlaq huquq tovar belgisi Tovar belgilarining davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan



e'tiboran ro'yxatdan o'tkazishning amal qilish davrida amalga oshiriladi hamda tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar o'sha kunning o'zida Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Tovar belgisiga doir mutlaq huquq tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin vujudga keladi va shu sababli bu toifadagi nizolarni ko'rib chiqishda tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazilishidan oldin ro'yxatdan o'tkazilgan domen nomini bekor qilish to'g'risidagi talablarni qanoatlantirish rad etilishi lozim.

FKning 1035-moddasiga asosan intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlar egasiga tegishli mulkiy huquqlar huquq egasi tomonidan shartnoma bo'yicha boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazilishi mumkin.

Shartnoma bo'yicha o'tkaziladigan mutlaq huquqlar unda aniqlab qo'yilishi lozim. Shartnomada boshqa shaxsga o'tkaziladigan huquq sifatida ko'rsatilmagan huquqlar, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa, o'tkazilmagan deb hisoblanadi. Mutlaq huquqni uning amal qilish davrida cheklangan vaqtga boshqa shaxsga berishni nazarda tutuvchi shartnomaga nisbatan litsenziya shartnomasi to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi.

FKning 1036-moddasiga ko'ra, litsenziya shartnomasi bo'yicha intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lgan taraf (litsenziar) boshqa tarafga (litsenziatga) tegishli intellektual mulk obyektidan foydalanishga ruxsatnoma beradi.

Shuni e'tiborga olish lozimki, FKning 1106-moddasiga muvofiq tovar belgisiga bo'lgan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish yoki litsenziya berish haqidagi shartnoma yozma shaklda tuzilishi va vakolatli davlat organida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Yozma shaklga va ro'yxatdan o'tkazish talabiga rioya qilmaslik shartnomaning haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'ladi.

Tovar belgisiga bo'lgan huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish yoki litsenziya berish haqidagi shartnoma Vazirlikda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Litsenziya shartnomasi, agarda shartnomada boshqacha belgilanmagan bo'lsa, haq evaziga tuzilgan hisoblanadi.

Yuqoridagiga asosan shuni aytishimiz mumkinki, litsenziarning haq undirish to'g'risidagi talabini litsenziat tomonidan intellektual mulk obyektidan foydalanilmaganligi vaji bilan qanoatlantirishni rad etish mumkin emas.

Bundan tashqari intellektual mulk obyektidan litsenziya shartnomasi ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bir yil davomida foydalanilmaganda, litsenziar intellektual mulk obyektidan foydalanilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni undirish, shuningdek shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Zarar miqdori shu kabi



holatlarda intellektual mulk obyektidan foydalanilganligi uchun to'lanadigan miqdordan kelib chiqib aniqlanishi mumkin.

Shu bilan birga, shuni ham inobatga olish kerakki, litsenziat tomonidan intellektual mulk obyektidan foydalanilmaganligi bo'yicha har bir holat haq undirish yoki zararni undirish bo'yicha talabni qanoatlantirish uchun asos bo'lib hisoblanmasligi zarur.

Xususan, litsenziat tomonidan intellektual mulk obyektidan foydalanilmaslik fors-major holatlar yoki litsenziatning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar natijasida vujudga kelishi mumkin.

Shu sababli, bu kabi nizolarni ko'rib chiqishda sudlar litsenziat intellektual faoliyat obyektidan foydalanishni aniq istamasligini ko'rsatuvchi mavjud materiallar asosida aniqlab, litsenziatning intellektual mulk obyektidan foydalanmaganlik sabablarini baholashi maqsadaga muvofiq hisoblanadi.

FKning 1034-moddasiga asosan intellektual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositaga nisbatan mulkiy huquqlar egasiga ana shu intellektual mulk obyektidan o'z xohishiga ko'ra har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqi tegishli bo'ladi.

FK mutlaq huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalarni tuzishda litsenziatning, agarda litsenziya shartnomasi imzolangan bo'lsa, roziligini olishni nazarda tutmaydi.

Shu bois, intellektual mulk obyektini yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalarga bo'lgan mutlaq huquqning boshqa shaxsga o'tkazilishi avvalgi huquq egasi bilan tuzilgan litsenziya shartnomasini o'zgartirishga yoki bekor qilishga asos bo'lmaydi. Yangi huquq egasi oldin tuzilgan litsenziya shartnomasi bo'yicha litsenziar bo'ladi.

Bunday holatlarda litsenziya shartnomasini bekor qilish qonunchilikka asosan amalga oshiriladi.

Intellektual mulk obyektini yoki xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalarga bo'lgan huquqlarni buzgan shaxsga nisbatan ma'muriy yoki jinoiy jazo choralarining qo'llanilishi xuddi shu shaxsga fuqarolik-huquqiy tartibda intellektual huquqlarni himoya qilish uchun choralar ko'rishni istisno etmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi



4. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni
5. "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni
6. "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni
7. Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 20-mayda 1361-tartib raqami bilan ro'yxatga olingan Sanoat namunasiga O'zbekiston Respublikasi patentini berish haqidagi talabnomani tuzish, topshirish va ko'rib chiqish qoidalari
8. Sudlar tomonidan meros huquqiga oid qonunchilikning qo'llanilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenum qarori
9. "Гражданский кодекс Российской Федерации (часть четвертая)" от 18.12.2006 N 230-ФЗ (ред. от 07.10.2022)
10. Закон Республики Казахстан от 10 июня 1996 года № 6-І «Об авторском праве и смежных правах» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 20.06.2018 г.)
11. Таможенный кодекс Евразийского экономического союза от 11 апреля 2017 года
12. Интеллектуал мулк. Дарслик. Масъул мухаррирлар: ю.ф.д., проф., О.Окюлов, ю.ф.ф.д. (PhD), доцент Н.Э.Гафурова // Муаллифлар жамоаси. – Т.: ТДЮУ нашриёти, 2019. – 588 бет. 322.
13. Федоров А. А. Правовая охрана проектных решений в Украине: монография / А. А. Федоров. – Одесса: Бахва, 2015. – 172 с.
14. Adliya vazirligi Intellektual mulk departamanti 2022-yil hisobotlari.
15. Vojxona qo'mitasi intellektual mulk bo'yicha tahlillari.

Web-saytlar:

<https://www.lex.uz>

<https://www.norma.uz>

<https://www.wipo.int>

